

**ADIBLAR – MILLAT MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI VA
TARAQQIYOT MEZONI**

Abdiyeva Sarvinoz Shoyimovna

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada adiblar va so'z san'atkorlarining millat ma'naviyatini shakllantirish, o'zlikni anglash va tarixiy xotirani saqlashdagi beqiyos o'rni tahlil qilinadi. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va O'tkir Hoshimov kabi yirik namoyandalar merosi misolida adabiyotning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, globallashuv davrida adabiyotning yoshlar tarbiyasi va komil insonni voyaga yetkazishdagi o'ziga xos o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, o'zbek adabiyoti, milliy qadriyatlar, jadidchilik, adabiy meros, psixologizm, tarbiya, badiiy tafakkur, xalq dardi.*

Har bir xalqning qadimiy tarixi, madaniyati va asrlar silsilasida shakllangan ma'naviy qadriyatlari uning adabiyotida yaqqol aks etadi. Ushbu boy bebaho merosni avlodlar yetkazish, xalqning o'zligini saqlab qolishida adiblarning o'rni beqiyosdir. Adiblar o'z asarlari orqali xalqning orzu-intilishlari, mudhish dardlari, quvonchlari hamda turmush tarzini badiiy bo'yoqlarda chizib beradi. Shu sababli yozuvchi va shoirlar haqli ravishda millat ma'naviyatining ko'zgusi, vijdon amri deb ataladi. Ularning ijodi inson qalbini boyitadi, yaxshilikka undaydi va jamiyatning ma'naviy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Adib bu nafaqat so'z o'yini qiluvchi san'atkor, balki xalq qalbining eng nozik torlarini cherta oluvchi tarjimonidir. U jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, xalqning dardu hasratini va kelajakka umidlarini o'z asarlarida umumiyashtirib ifodalaydi. Shuning uchun ham har bir davr adabiyoti o'z zamonasining nafasini, og'riqli nuqtalarini aniq ko'rsatuvchi eng ishonchli manbadir. O'zbek adabiyoti tarixida xalq ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan mutafakkirlar bisyor. Xususan, hazrat Alisher Navoiy o'zining ummondek keng ijodi bilan millat tafakkurini yangi

bosqichga olib chiqqan. Uning asarlarida insonparvarlik, adolat, xalqparvarlik, mehr-oqibat va ilm-ma'rifatga intilish g'oyalari poydevor hisoblanadi. Mutafakkirning "Xamsa" asari nafaqat o'zbek, balki butun turkiy va jahon adabiyotining bebaho durdonasi bo'lib, unda ezgulik va yovuzlik kurashi, shaxsning o'z nafsini yengib, komillik sari intilishi badiiy va falsafiy jihatdan yuksak pardalarda kuylangan. XX asr boshlari, milliy uyg'onish (jadidchilik) davrida adiblarning missiyasi yanada mas'uliyatli tus oldi. Abdulla Qodiriy asarlari millat ma'naviyati rivojiga qo'shilgan eng katta hissalaridan biridir. Uning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari xalqimiz tarixi, sof o'zbekona urf-odatlar, tili va milliy fojealarini aks ettirgan muhim badiiy hujjatdir. Bu asarlar orqali kitobxon o'zbekning qiyofasini taniydi, o'tmish xatolaridan saboq oladi. Shu bilan bir qatorda, istiqlol va hurriyat kuychisi Abdulhamid Cho'lpon ijodi ham millat ruhiyatini uyg'otishda ulkan o'rin tutadi. Uning "Kecha va kunduz" romani orqali jamiyatdagi jaholat, adolatsizlik va mustamlakachilik kishanlari ayovsiz fosh etiladi. Cho'lpon o'zining isyonkor va yoniq she'riyati orqali xalqni qullikdan qutulishga, ilm-ma'rifat va ma'naviy yorug'likka chorladi. O'zbek hikoyachiligi ustasi Abdulla Qahhor hamda xalq yozuvchisi Said Ahmad kabi yirik adiblar ijodi ham adabiyotimizning yorqin sahifalarini tashkil qiladi. Abdulla Qahhor o'zining qisqa, ammo o'tkir hikoyalarda ("Bemor", "O'g'ri", "Dahshat") va yirik polotnolarida xalq orasidagi qoloqlik, nodonlik, mutaassiblik illatlarini o'tkir satira va pishiq til yordamida ayovsiz fosh etdi. U adabiyotni kasalliklarni davolovchi nehtar (jarrohlik pichog'i) deb bildi. Said Ahmadning serqirra ijodi, ayniqsa "Ufq" trilogiyasi va betakror hikoyalari xalqimizning eng og'ir urush va urushdan keyingi yillardagi metin irodasini, insonparvarligini ko'rsatib berdi. Yozuvchining mutoyiba bilan yo'g'rilgan asarlarida o'zbekning bag'rikengligi va ma'naviy boyligi mujassamlashgan. Bugungi kunda ham yozuvchilarning jamiyat ma'naviy iqlimini toza saqlashdagi o'rni nihoyatda muhimdir. Masalan, O'tkir Hoshimov asarlarida ("Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi") oddiy insonlarning kundalik dardi, aziz oilaviy qadriyatlar, ona siymosi, mehr-oqibat va vijdoniylik mezonlari chuqur falsafiy mushohada qilinadi. U o'zining samimiy tili va gumanistik g'oyalari bilan

har bir kitobxonni hayotning o'tkinchi ekanligi, yaxshilik qilish va qadrga yetish kerakligi haqida o'ylashga majbur qiladi. Adiblar faqatgina go'zal tasvirlar yaratib qolmay, jamiyatdagi og'riqli nuqtalarga e'tibor qaratadilar. Ular haqiqatni qo'rqmasdan aytadilar, adolatsizlikka qarshi kurashadilar, insonni tubanlikdan qutqarib, ma'naviy kamolotga undaydilar. Yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyos. Kitob mutolaa qilgan yoshlarning fikrlash doirasi kengayadi, tili ravon, didi o'tkir bo'ladi. Eng muhimi, ularning qalbida vatanparvarlik, kattalarga hurmat, halol mehnat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalar mustahkam o'rin egallaydi. Bugungi globallashuv, axborot oqimi tezlashgan va texnologiyalar hukmronlik qilayotgan davrda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish davlat ahamiyatiga molik masalaga aylangan.

Yengil-yelpi axborotlar va yot g'oyalar ta'siridan himoyalanişning yagona kuchli qalqoni — bu chinakam badiiy asarlardir. Adiblar merosini sevib o'qigan yoshlarga kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetadilar. Xulosa qilib aytganda, adiblar millat ma'naviyatining eng tiniq va xolis ko'zgusidir. Ular o'z ijodi orqali xalqning murakkab ruhiyatini, qadimiy qadriyatlarini va buyuk maqsadlarini namoyon etadi. Alisher Navoiydan tortib to bugungi kun ijodkorlarigacha bo'lgan yozuvchi va shoirlarimizning merosi xalqimiz uchun tuganmas boylikdir. Bu adabiy merosni chuqur o'rganish, tahlil qilish va yoshlar ongiga singdirish millat istiqbolini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Zero, ma'naviyati yuksak, adabiyotini qadrlagan xalqni hech qanday kuch tanazzulga yuzlashtira olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z (Badiiy tahlil asoslari) Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
5. Sharafiddinov O. Istiqlool fidoyilari. – Toshkent: Sharq, 1993.